Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 433-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271
MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekistonda aholi turmush darajasi holati va dinamikasini statistik tahlili.....277
ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O‘G‘LI
Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash (ABC) usuli asosida mahsulot tannarxini aniqlash.....284
KAMOLOVA NAZOKAT MALIK QIZI
To‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishda suv izi ko‘rsatkichlariga asoslangan yashil marketing vositalaridan foydalanish istiqbollari.....301
USMANOVA NASIBA YUNUSOVNA
O‘zbekiston korxonalarida raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini strategik boshqarish: muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari.....312
KUVNAKOV XAYDAR KASIMOVICH
O‘zbekistonda cho‘l va yarim cho‘l yaylovlari maydonlaridan samarali foydalanishda qorako‘lchilikning ahamiyati.....324
BERDIYOROV BAXTIYOR SODIQOVICH
Ekoturizm va uning O‘zbekiston turizm xizmatlari bozoridagi o‘rni.....330
GAO BING, ZHAO YI
Barriers and practice configurations of corporate green management: evidence from semi-structured interviews with operational managers.....338
YUSUPOV SAIDVALI SHUKRULLAYEVICH
To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uslubiyotini ekonometrik modellashtirish asosida takomillashtirish.....350
TAN HONGLIN, LI BING
Efficiency–resilience coupling and spatial spillovers in cross-border arid agglomerations: an analytical framework and testable propositions.....362
SAYFUTDINOV SHUXRATJON SULTONOVICH
Turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....375
BEGLAYEV UÇQUN XURRAMOVIÇ
Hududlar baliqçilik sohasiga xizmat körsatuvçi infratuzilma subyektlarining boşqaruv tizimi va ularning samaradorlikga ta’siri.....382
NIYOZMETOV DONIYOR REJABBAYEVICH
Raqamli texnologiyalar sharoitida ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘zgarishi.....395

TILOVMURODOV DOSTONBEK FURQAT O‘G‘LI
Aktiv turizm xizmatlarini shakllantirish va tijoratlashtirish yo‘llari.....405
TOSHTEMIR BOYMURODOVICH BERDIYEV
Mamlakatimiz bank tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....412
BOBOJANOV BAHROMBEK RUZIMOVICH, BABADJANOVA MALIKA RUZIMOVNA
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va agrobiznes samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari.....418
ABDULHAYEV SHOHZOD HUSNIDDIN O‘G‘LI
Xodimlar malakasini oshirishga kiritilgan investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini baholash (Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalari misolida).....425
SATTIKULOVA GAVHARNISO AXMADXANOVNA
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xitoy tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....433
MURODOVA NARGIZA O‘TKUROVNA
Turizmda dinamik narx belgilash va raqamli marketing samaradorligi.....441
TEMIROVA FERUZA SAGDULLAYEVNA
Raqamli iqtisodiyotda brendga sodiqlik: xulq-atvor va multikanal yondashuvlar.....450
HAYITOV JAMSHID XOLBOYEVICH, TURSUNOV QOSIMBEK NODIROVICH, TOG‘AYEV ABROR AKBAR O‘G‘LI
Xizmatlar sohasida moliyaviy innovatsiyalar va iqtisodiy samaradorlik.....458
HAYITOV JAMSHID XOLBOYEVICH, BOZOROV JOBIR SIROJIDDIN O‘G‘LI
Xizmatlar sohasida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlar.....468
BOLTAYEV NURALI SHIRAMATOVICH
Agrar oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlashning boshqarish jarayonini baholash.....476

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XITOY TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

SATTIKULOVA GAVHARNISO AXMADXANOVNA
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi katta öqituvchisi
E-mail: gavharnisosattikulova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Xitoy Xalq Respublikasi tajribasidan O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari tadqiq etiladi. Davlat tomonidan ekologik modernizatsiyani qo‘llab-quvvatlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, yashil investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va barqaror energetika infratuzilmasini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Xitoyning quyosh, shamol va gidroenergetika sohalaridagi natijalari hamda ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Yashil transformatsiya texnologik yangilanish bilan bir qatorda inson kapitalini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kadrlarni qayta tayyorlash va hududlarning ekologik barqarorligini oshirishni ham qamrab olishi asoslanadi.
Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, Xitoy, O‘zbekiston, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, quyosh energetikasi, shamol energetikasi, kichik gidroenergetika, yashil investitsiyalar, inson kapitali, yashil bandlik, ekologik modernizatsiya.

Аннотация. В статье исследуются возможности использования опыта Китайской Народной Республики в развитии зеленой экономики в Республике Узбекистан. Особое внимание уделяется вопросам государственной поддержки экологической модернизации, развития возобновляемых источников энергии, привлечения зеленых инвестиций, внедрения инновационных технологий и формирования устойчивой энергетической инфраструктуры. Рассматриваются результаты Китая в сферах солнечной, ветровой и гидроэнергетики, а также перспективы адаптации данного опыта к условиям Узбекистана. Обосновывается, что зеленая трансформация, наряду с технологическим обновлением, должна охватывать развитие человеческого капитала, создание новых рабочих мест, переподготовку кадров и повышение экологической устойчивости регионов.
Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, Китай, Узбекистан, возобновляемые источники энергии, солнечная энергетика, ветровая энергетика, малая гидроэнергетика, зеленые инвестиции, человеческий капитал, зеленая занятость, экологическая модернизация.

Abstract. The article examines opportunities for applying the experience of the People’s Republic of China to the development of the green economy in the Republic of Uzbekistan. It focuses on state support for environmental modernization, the development of renewable energy sources, the attraction of green investment, the introduction of innovative technologies, and the formation of sustainable energy infrastructure. China’s achievements in solar, wind, and hydropower, as well as the prospects for adapting this experience to Uzbekistan’s conditions, are considered. The article substantiates that the green transition should encompass not only technological modernization but also human capital development, the creation of new jobs, workforce retraining, and improvement of the environmental sustainability of regions.
Keywords: green economy, sustainable development, China, Uzbekistan, renewable energy sources, solar energy, wind energy, small hydropower, green investment, human capital, green employment, environmental modernization.

KIRISH

Hozirgi sharoitda yashil iqtisodiyotga o‘tish milliy iqtisodiyotlarni tarkibiy o‘zgartirishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Iqlim o‘zgarishlarining kuchayishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, energiya

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

iste'molining ortishi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash zarurati resurslardan oqilona foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish hamda xo'jalik faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga asoslangan yangi rivojlanish modelini talab qilmoqda.

Yashil iqtisodiyot faqat qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bilangina cheklanmaydi. U ishlab chiqarish, transport, qishloq xo'jaligi, sanoat, tabiiy resurslarni boshqarish va mehnat bozorini kompleks o'zgartirishni nazarda tutadi.

Ushbu nuqtayi nazardan Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi alohida qiziqish uyg'otadi. Mamlakat qayta tiklanuvchi energetika ko'lamini kengaytirish, ekologik yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy energetika texnologiyalarini joriy etishda salmoqli natijalarga erishdi.

O'zbekiston quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish bo'yicha katta tabiiy salohiyatga, gidroenergetikani kengaytirish imkoniyatlariga ega. Shu bilan birga, sanoat va kommunal xo'jalikda energiya samaradorligini oshirish zarurati ham mavjud. Yashil iqtisodiyotga o'tish energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va energetik o'tishning ijtimoiy adolatini ta'minlashni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — Xitoy tajribasini O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash va yashil iqtisodiy rivojlanishning samarali mexanizmlarini taklif etish.

Tadqiqot vazifalari: Xitoyda yashil iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'rganish; Xitoy qayta tiklanuvchi energetika ko'rsatkichlarini tahlil qilish va O'zbekistonda sohani rivojlantirish imkoniyatlarini baholash; investitsiyaviy va texnologik mexanizmlardan foydalanish yo'nalishlarini aniqlash; yashil bandlik va inson kapitali istiqbollarini baholash; amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari barqaror rivojlanish, ekologik modernizatsiya va resurslarni tejaydigan iqtisodiy o'sish konsepsiyalari bilan bog'liq. Xalqaro adabiyotlarda u ekologik xavflar va tabiiy resurslar tanqisligini kamaytirish bilan bir vaqtda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan rivojlanish modeli sifatida talqin etiladi.

Ushbu konsepsiyani rivojlantirishga BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP), Xalqaro energetika agentligi (IEA), Jahon banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) muhim hissa qo'shgan [11, 12]. Xitoy tajribasi uzoq muddatli davlat rejalashtirishi, investitsiyalarni jalb qilish, sanoat siyosati va texnologik innovatsiyalar uyg'unligi bilan alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning institutsional asosini Prezidentning 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tashkil etadi [1].

Shunga qaramay, yashil moliyalashtirish, innovatsion infratuzilma va yangi ish o‘rinlarini yaratish mexanizmlarini yanada chuqur o‘rganish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, tahliliy va tarkibiy-funksional yondashuvlar tashkil etadi. Ishda qayta tiklanuvchi energetika ko‘rsatkichlarini tizimli tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat strategiyalarini o‘rganish, ekologik loyihalarni moliyalashtirish tajribasini tahlil qilish hamda yashil bandlik istiqbollarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini Xitoy Milliy energetika boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Milliy statistika qo‘mitasi, IEA, UNIDO va OECD materiallari tashkil etdi. Asosiy tahliliy davr sifatida 2024-yil tanlandi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Xitoyda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribasi.Xitoy yashil energetikani rivojlantirish bo‘yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biridir. Xitoy modelining o‘ziga xos jihati davlat strategik rejalashtirishi, texnologik modernizatsiya, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyaviy qo‘llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni birlashtiruvchi kompleks yondashuvdan iborat.

2024-yilda Xitoyda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami o‘rnatilgan quvvati taxminan 1 889 GVtga yetib, elektr stansiyalarining umumiy quvvatidagi ulushi qariyb 56,4 foizni tashkil etdi [3, 4]. Yil davomida qariyb 373 GVt yangi qayta tiklanuvchi quvvatlar ishga tushirildi. Quyosh energetikasi quvvati taxminan 887 GVtga, shamol energetikasi esa 521 GVtga yetdi. Ushbu ko‘rsatkichlar Xitoyda energetika transformatsiyasi tizimli tus olganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Xitoyda qayta tiklanuvchi energetika rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari, 2024-yil

Ko‘rsatkich	Qiymat
Elektr stansiyalarining jami o‘rnatilgan quvvati	Taxminan 3 350 GVt
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati	Taxminan 1 889 GVt
Qayta tiklanuvchi manbalarning jami quvvatdagi ulushi	Taxminan 56,4%
Quyosh energetikasi	Taxminan 887 GVt
Shamol energetikasi	Taxminan 521 GVt
Gidroenergetika	Taxminan 436 GVt
Bioenergetika	Taxminan 46 GVt
Qayta tiklanuvchi manbalardan elektr ishlab chiqarish	Taxminan 3,46 trln kVt·soat
Jami elektr ishlab chiqarishdagi qayta tiklanuvchi manbalar ulushi	Taxminan 35%

Manba: muallif ishlanmasi.

Qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish quyosh panellari, shamol turbinalari, akkumulyator tizimlari va boshqa energetika uskunalarini ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish bilan birga olib borilmoqda.

a) Xitoyda qayta tiklanuvchi energetika tarkibiy ko‘rsatkichlari tahlili va O‘zbekiston imkoniyatlari.Xitoy energetika balansida qayta tiklanuvchi manbalar ulushining barqaror ortib borishi quyosh, shamol va gidroenergetika quvvatlarining muvozanatli rivojlantirilishi bilan izohlanadi (2-jadval). O‘zbekiston ham quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish uchun katta tabiiy salohiyatga ega. Biroq milliy energetika tizimining tabiiy gazga yuqori darajada tayanishi elektr energiyasi manbalarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilishni taqozo etadi.

2024-yilda O‘zbekistonda taxminan 1 000 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyalari va 800 MVt quvvatli shamol elektr stansiyalari foydalanishga topshirildi. Quyosh va shamol elektr stansiyalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi qariyb 4,86 mlrd kVt·soatni tashkil etdi [7, 8].

Tahlil natijalari O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energetika quvvatlarini faol oshirish bosqichida ekanini ko‘rsatadi. Xitoy tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda generatsiya quvvatlari bilan bir qatorda elektr uzatish infratuzilmasi, energiya saqlash tizimlari va milliy kadrlar salohiyatini ham uyg‘un rivojlantirish zarur.

2-jadval

Xitoyda yashil energetika rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari, 2024-yil

Ko‘rsatkich	Ko‘rsatkich qiymati
Qayta tiklanuvchi manbalarning o‘rnatilgan quvvatdagi ulushi	56,4%
Elektr ishlab chiqarishdagi qayta tiklanuvchi manbalar ulushi	Taxminan 35%
Quyosh energetikasi	887 GVt
Shamol energetikasi	521 GVt
Gidroenergetika	436 GVt
Yil davomida yangi qayta tiklanuvchi quvvatlar	373 GVt

Manba: muallif ishlanmasi.
Izoh: qayta tiklanuvchi energetika ko‘rsatkichlarini baholashda o‘rnatilgan quvvatdagi ulush (56,4%) va amaldagi elektr ishlab chiqarish hajmidagi ulush (taxminan 35%) o‘rtasidagi farq tabiiy-iqlim omillari hamda stansiyalarning yuklama koeffitsiyenti bilan izohlanadi.

Xitoy modelining investitsiyaviy va texnologik mexanizmlari. Xitoy tajribasining muhim jihatlaridan biri yashil loyihalarni moliyalashtirishning turli mexanizmlaridan foydalanishdir. Xitoy modeli davlat investitsiyalari, bank kreditlari, davlat va xususiy kompaniyalar ishtiroki, davlat-xususiy sheriklik hamda xalqaro investitsiyaviy hamkorlik uyg‘unligiga asoslanadi [6, 10].

Energetika obyektlarini shunchaki qurishdan ko‘ra, moliyalashtirish, loyihalash, qurish va keyingi ekspluatatsiyani qamrab oluvchi kompleks investitsiya loyihalari muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda Xitoy kompaniyalari ishtirokida quyosh elektr stansiyalarini qurish loyihalari bunday hamkorlikning amaliy misolidir [2, 9].

Hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlariga quyosh panellari va energetika uskunalari komponentlarini ishlab chiqarish, shamol elektr stansiyalarini qurish, kichik gidroenergetikani rivojlantirish, energiya saqlash tizimlarini joriy etish,

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

energetika tarmoqlarini raqamlashtirish va sanoatda energiya samaradorligini oshirish kiradi.

Energetika uskunalarini mahalliylashtirish importga qaramlikni kamaytirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, texnologik kompetensiyalarni kengaytirish va bandlikni oshirish imkonini beradi.

Kichik gidroenergetikani rivojlantirish istiqbollari.Xitoy kichik gidroenergetikaning o‘rnatilgan quvvati bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. UNIDOning 2022-yilgi Jahon kichik gidroenergetikani rivojlantirish hisobotiga ko‘ra, jahon kichik GESlari o‘rnatilgan quvvatining qariyb 53 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelgan [5].

Bu yo‘nalish O‘zbekiston uchun ham muhim, chunki mamlakatda keng irrigatsiya infratuzilmasi, suv xo‘jaligi obyektlari va tog‘ daryolari mavjud. Kichik GESlarni mavjud suv inshootlarining ayrim uchastkalarida barpo etish mumkin.

Xitoy tajribasini moslashtirishning asosiy yo‘nalishlari irrigatsiya kanallarining energetik salohiyatidan foydalanish, mavjud gidrotexnik inshootlarda kichik GESlar qurish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qo‘llash, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va hududiy servis korxonalarini rivojlantirishdan iborat. Bunda ekologik cheklovlar, suvdan foydalanish talablari va suv ekotizimlarini saqlash zarurati hisobga olinishi shart.

Yashil iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish.Energetika transformatsiyasining muhim natijalaridan biri mehnatga bo‘lgan talab tarkibining o‘zgarishi va yangi kasbiy kompetensiyalarning shakllanishidir. Quyosh, shamol va gidroenergetikaning rivojlanishi energetika obyektlarini loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, texnik xizmat ko‘rsatish va raqamli boshqarish bilan bog‘liq yangi mehnat bozori segmentlarini yuzaga keltiradi.

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika muhandislarini tayyorlash, yashil texnologiyalar bo‘yicha ta’lim dasturlarini rivojlantirish, an’anaviy energetika xodimlarini qayta tayyorlash, energetik audit va ekologik menejment kompetensiyalarini shakllantirish zarur.

3-jadval

O‘zbekistonda yashil bandlikni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Yangi faoliyat turlari	Talab etiladigan kompetensiyalar
Quyosh energetikasi	Quyosh panellarini o‘rnatish va xizmat ko‘rsatish	Elektrotexnika, avtomatlashtirish
Shamol energetikasi	Shamol qurilmalarini ekspluatatsiya qilish	Muhandislik, texnik diagnostika
Kichik gidroenergetika	Kichik GESlarga xizmat ko‘rsatish	Gidrotexnika, energetika
Energiya samaradorligi	Korxonalarda energetik audit	Energiya menejmenti
Ekologik texnologiyalar	Chiqindilar va resurslarni boshqarish	Ekologik menejment
Raqamli energetika	Intellektual tarmoqlarni boshqarish	IT, ma’lumotlar tahlili, raqamli texnologiyalar

Manba: muallif ishlanmasi.

Adolatli energetik o‘tish (Just Energy Transition) konsepsiyasi energetika sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlar ta’siriga uchraydigan xodimlar va hududlarning

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi. Shu sababli yashil iqtisodiyotni rivojlantirish ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoya va hududiy rivojlanish siyosati bilan uyg'un olib borilishi lozim (3-jadval).

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda Xitoy tajribasini moslashtirishning bir nechta muhim jihatlarini ko'rsatadi. Birinchidan, ikki davlatning iqtisodiy ko'lami, tabiiy-iqlim sharoitlari va energetika balansi tarkibidagi farqlarni hisobga olish zarur. Shu sababli Xitoy modelini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki O'zbekiston sharoitlariga mos mexanizmlarni tanlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish elektr tarmoqlari infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan birga olib borilishi lozim. Quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvatining ortishi energiya saqlash qurilmalari, intellektual boshqaruv tizimlari va yuklamani muvozanatlash mexanizmlarini talab qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda Xitoy tajribasini moslashtirishga doir kompleks yondashuvni asoslashdan iborat. Ushbu yondashuv investitsiyaviy-texnologik modernizatsiya, qayta tiklanuvchi energetika, inson kapitalini shakllantirish va yashil bandlikni kengaytirish kabi to'rtta o'zaro bog'liq komponentni birlashtiradi. Yashil transformatsiyani milliy mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rib chiqish zarurligi asoslangan (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston yashil iqtisodiyotini rivojlantirishda Xitoy tajribasidan foydalanish yo'nalishlari

Yo'nalish	Xitoy tajribasi	O'zbekiston uchun takliflar
Davlat boshqaruvi	Uzoq muddatli rejalashtirish	Yashil transformatsiya monitoringini rivojlantirish
Investitsiyalar	Kompleks investitsiya mexanizmlari	DXSh va yashil moliyalashtirishni kengaytirish
Energetika	Quyosh va shamol generatsiyasini kengaytirish	Milliy energetikani diversifikatsiya qilish
Gidroenergetika	Kichik GESlar va gidroakkumulyatsiya	Irrigatsiya infratuzilmasidan foydalanish
Texnologiyalar	Energetika uskunalarini ishlab chiqarish	Mahalliylashtirish va texnologiyalar transferi
Inson kapitali	Texnik va muhandis kadrlarni tayyorlash	Yashil ta'lim dasturlarini yaratish
Bandlik	Yangi tarmoqlar va ishlab chiqarish zanjirlari	Yashil bandlik tizimini shakllantirish
Ekologiya	Kam uglerodli modernizatsiya	Resurs sarfi va chiqindilarni kamaytirish

Manba: muallif ishlanmasi.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Tadqiqot Xitoy tajribasi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning samarali modelini shakllantirish uchun katta amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Barqaror kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish alohida ekologik tadbirlar bilan emas,

balki davlat boshqaruvi, investitsiyaviy, texnologik va institutsional o‘zgarishlarning kompleks tizimi orqali ta’minlanadi.

O‘zbekiston uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

1. Yashil transformatsiyani davlat tomonidan boshqarishni takomillashtirish hamda energetika, investitsiya, sanoat, ekologiya va ijtimoiy siyosat muvofiqligini ta’minlash.

2. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, xalqaro moliya institutlarini jalb etish va uzoq muddatli yashil investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish.

3. Quyosh panellari, shamol qurilmalari komponentlari, akkumulyatorlar va energetika uskunalarini ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy kompaniyalari bilan qo‘shma korxonalar tashkil etish.

4. Irrigatsiya kanallari, kichik daryolar va mavjud gidrotexnik inshootlar salohiyatidan foydalanib, kichik gidroenergetikani kengaytirish.

5. Yashil iqtisodiyot tarmoqlari uchun kasbiy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish.

6. Yangi kasblarga bo‘lgan ehtiyojni prognozlash, ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirish va energetika transformatsiyasi ta’siriga uchraydigan xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

7. Hududlarda ekologik yo‘naltirilgan ishlab chiqarish, tadbirkorlik va bandlik imkoniyatlarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy tajribasidan foydalanish O‘zbekiston iqtisodiyotining yashil transformatsiyasini jadallashtirishning muhim omiliga aylanishi mumkin. Buning asosiy sharti qayta tiklanuvchi energetika quvvatlarini shunchaki oshirishdan to‘laqonli ekologik yo‘naltirilgan iqtisodiy tizimni shakllantirishga o‘tishdir. Uzoq muddatda yashil iqtisodiyot ekologik yuklamani kamaytirish bilan birga investitsiya imkoniyatlari, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, sifatli ish o‘rinlari va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik manbai sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/acts/4539506

2. International Energy Agency (IEA). China’s Official Energy Finance in Emerging and Developing Economies. Case 1. Uzbekistan 1-GW Solar PV Project. https://www.iea.org/reports/chinas-official-energy-finance-in-emerging-and-developing-economies/case-1-uzbekistan-1-gw-solar-pv-project

3. National Energy Administration of China. Renewable Energy Grid-Connected Operation in 2024. 2025. https://www.nea.gov.cn/20250221/e10f363cabe3458aaf78ba4558970054/c.html

4. State Council of the People's Republic of China. Renewable energy accounts for 56 pct of China's total installed capacity. 2025. https://english.www.gov.cn/archive/statistics/202501/28/content_WS6798de96c6d0868f4e8ef410.html

5. UNIDO. World Small Hydropower Development Report 2022. https://www.unido.org/

6. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. 2025. https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en/full-report/promoting-green-investment-in-uzbekistan_021bd5e8.html

7. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. 2024-yilda energetika sohasida amalga oshirilgan ishlar. https://gov.uz/ru/minenergy/news/view/39442

8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT: Share of Green Energy in Energy Production. https://siat.stat.uz/data/4618/?lang=en

9. International Institute for Central Asia. Uzbek-Chinese Cooperation in Green Energy. 2024. https://iica.uz/en/page/uzbeksko-kitayskoe-sotrudnichestvo-v-zelyonoy-energetike

10. Carnegie Endowment for International Peace. Green New Wave: How China Adapts to Central Asia's Renewable Energy Landscape. 2024. https://carnegieendowment.org/posts/2024/07/green-new-wave-how-china-adapts-to-central-asias-renewable-energy-landscape

11. OECD. Towards Green Growth. OECD Green Growth Studies. Paris, 2011.

12. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. 2011.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy